



ASKIYALARDA EVFEMIZM VA DISFEMIZM IFODASI

Xaytboyeva Muxlisa Muxtor qizi
Urganch davlat universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada evfimizm va disfemizm hodisasining askiyalarda qo‘llanishi, ularning individul nutqiy hodisa sifatida askiyachilar tilida ko‘p uchrashi va buning sabalari haqida olib borilgan kuzatishlar natijalari bayon qilindi.

Kalit so‘zlar: askiya, payrov, evfimizm, disfemizm, pragmatik nutq.

Turli xalqlarning ruhiyati ularning tilida evfimizm va disfemizm yuzaga kelishi orqali namoyon bo‘ladi. “Evfimizm” so‘zi yunoncha “yaxshi alomatli so‘z” degan ma‘noni bildiradi¹. Evfimizm – narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo‘pol beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol botmaydigan so‘z qo‘llash² hisoblanadi.

O‘zbek tili ichki ifoda imkoniyatlari nutqiy voqelanishining o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblangan evfimizm va disfemizmlarda til va ma‘naviyat, til va ruh jihatlarini mushtarakligi yaqqol yuzaga chiqadi. Bugungi kunda milliy ma‘naviyat global ahamiyat kasb etayotgan bir davrda o‘zbek xalqining milliy mentalitetini o‘zida yaqqol namoyon qiladi.

Dunyoda hech bir xalq yo‘qki, tanti o‘zbek xalqichalik kulgini, hazil va mutoyibani sevmasa, samimiyatga, so‘zamolikka o‘zbek xalqichalik ko‘ngil qo‘ymasa. Xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lmish askiya uzoq yillik rivojlanish bosqichini bosib o‘tgan, xalq orasida ommalashgan o‘ziga xos janr sifatida baholanadi. Askia o‘zining serjiloligi, yumorga boyligi bilan ota-bobolarimiz e‘tiborini jalb qilib kelgan, ular tomonidan yaxshi kutib olingan. Satira va yumor asosiga qurilgan askiya inson tafakkurining hozirjavoblighi, zehni o‘tkirliги, aql idroki va donoligini o‘zida mujassam etadi, qolaversa, uning negizida so‘z o‘yinlari, qochiriqlar, chandishlar, kinoyalalar, mubolag‘alar yotadi. Boshqacha aytganda, askiya fikrlash musobaqasidan iborat so‘z san‘ati hisoblanadi³. Bunday san‘at turning til etikasi ham turlicha bo‘lib, evfimizm asosiga qurilgan askiyalarni ko‘p uchratamiz.

¹ Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent, 2022. – B.134

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002. – B.131.

³ O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p jildlik. Askia. (To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi R. Muhammadiev). T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970. 5-bet.





Usmon qori: Tursunbuva, qurt boqqan ekansiz, kirib qarajak **kafanga** tayyor bo'lib qolibdi!

Tursunbuva: Bargga mo'l-ko'lchilikdanmi, juda shovillatib tashlayabdi.

Rustam aka: Unisi ham mayli-ya, pumktga borganda kam kelmasin deb, savatning ichiga tosh tashlab qo'yibdilar.

Usmon qori: Kimki shunaqa qilsa **qorason** bo'lsin-a! ("Pillachilik" payrovi 29-bet);

Yo'ldoshev: Komiljon aka, yaqinda magaziningizga kiruvdim, hamma oziq-ovqatlar boru, men axtargan narsa yo'q ekan, jahlim chiqib, tuzingiz yo'q ekan, deb chiqib ketaverdim.

Rahimov: Men ham sizning magaziningizga ir kostyum olay deb kiruvdim, hafsalam pir bo'lib chiqdi, menbop chiroylilari yo'q, faqat o'zingizning **nusxangiz** bor ekan, xolos. Sotuvchilaringizning **fasonini** ko'rib qaytaverdim. ("Savdo-sotiq" payrovi 68-bet)

Tilimizda evfemizmlarning kelib chiqish jarayonida ijtimoiy asos yotadi. Kishilar ba'zan boshqalar bilan muloqotga kirishish chog'ida o'zlari xohlagan narsani to'g'ridan-to'g'ri ayta olmaydigan, kommunikativ maqsadini to'la yetkazib bera olmaydigan yoki iboralarning o'z ma'nosida qo'llab muloqot jarayonida suhbatdoshlarini noqulay ahvolga solib qo'yadigan vaziyatlarga duch kelib qoladilar. Bunday og'ir vaziyatlardan chiqib ketish uchun, kishilar o'zlarining ifodalamoqchi bo'lgan fikr-mulohazalarini vositali ko'rinishda bildirishga harakat qiladilar. Bunday jarayon natijasi sifatida nutqda evfemizmlar yuzaga keladi.

Qodirjon aka. O'zim ham hayronman, va'dasini bajarmaydigan qanaqa qochoqqa uchrab qoldim?

Tursunbuva. Men bilan **don olishguncha** o'zingizga etak topib oling! ("Paxtachilik" payrovi 18-bet)

Disfemizm tilning yashovchan qatlami bo'lib, u ifodaga salbiy yondashuvni anglatadi. Disfemizm so'zlovchining tinglovchiga yoki biror predmetga nisbatan masxara, istehzoli, iltifotsiz qarashni bildiradi⁴. Disfemizm – denotat bahosiga munosabatning salbiy tomonga ketishi bilan bog'liq pragmatik hodisa. Disfemizm evfemizm bilan munosabatdosh bo'lganligi sababli ularning tasnifida ham evfemizmlar

⁴ Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent, 2022. – B.145.





tasnifidagi ayrim belgilar tayanch bo‘lib xizmat qiladi⁵. Shunga ko‘ra disfemizmlar boshqa til va nutq hodisalari ichida askiyalarda ko‘proq namoyon bo‘ladi.

G‘anijon: Siz ham yaxshi-yaxshi kuylarni o‘rganib davramizga kiring. To‘yma-to‘y yuraversangiz u **kal** naychi bo‘libdi deyishadi.

Dadajon: Yaxshi hunar – yaxshi ekan-da, aka. Siz ham skripkachiligingizdan qolmang, bilmaganlar: u surnaychi bo‘libdi, deyishadi. (“Sozlar” payrovi 67-bet);

Olimjon aka: Rasul qorini uzoqdan chaqirib yotsam-a, hoy **takasaltang**, hoy **takasaltang** deb.

Rasul qori: Men ham uzoqdan javob bersam-a, ha sartarosh, ha sartarosh deb. (“Ashula” payrovi 51-bet).

Evfemik va disfemik ma‘noli birliklar, asosan, nutqiy hodisa hisoblanib, muayyan asar yoki matn tarkibida individual mazmun hosil qilishi mumkin. Shuning uchun so‘z san‘atkorlari nutqida qo‘llangan bunday evfemik va disfemik ma‘noli birliklarni individual nutqning tarkibiy qismi sifatida maxsus tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega. Quyidagi askiya matnida ham hamma uchun notanish, faqat ayrim shaxslarga mazmuni ma‘lum bo‘lgan leksik birliklardan foydalanib, askiyada yashirin ma‘no saqlanganini payqash mumkin:

Qodirjon aka: O‘zlari qora taxtani qo‘noqqa aylantirib olibdilaru, yana bizga **tullaklik** qiladilar.

Tursunbuva: Terganlari pallaga kelmaydi-yu, yana biz bilan **pashshalashadilar**. (“Paxtachilik” payrovi 18-bet)

Evfimizm va disfemizmlar kelib chiqishi jihatidan uzoq tarixga ega bo‘lgan lisoniy va ijtimoiy-madaniy hodisadir. Ular xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlarini, udumlari, irim-sirimlari va ishonchlarini aks ettiradi. Askiyalarda qo‘llangan evfimizm va disfemizmlarni o‘rganish muloqot jarayonida turli pragmatik to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Research Science and Innovation House

⁵ Kadirova X. Evfemik va disfemik birliklarning ma‘no munosabati va ma‘no qamrovi asosidagi tiplari. - International scientific-methodological electronic journal. “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2023, No 6 (53), 60-77.





Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent, 2022. – B.134
- 2.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002. – B.131.
- 3.O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p jildlik. Askiya. (To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi R. Muhammadiev). T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970. 5-bet.
- 4.Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent, 2022. – B.145.
- 5.Kadirova X. Evfemik va disfemik birliklarning ma’no munosabati va ma’no qamrovi asosidagi tiplari. - International scientific-methodological electronic journal. “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2023, No 6 (53), 60-77.



**Research Science and
Innovation House**